



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Harzulloeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILY KOMPLEMENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN'Y INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVC1)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdukhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	



EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Nurmatov Samandar G'ayratovich
Shahrisabz davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedresi, doktorant
Email: Samandar200290@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini takomillashtirish zarurati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda globallashuv, urbanizatsiya, atrof-muhit ifloslanishi, oziqlanish odatlarining o'zgarishi va jismoniy faollik darajasining pasayishi kabi omillarning inson salomatligiga ta'siri o'rganildi. Adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari asosida ekologik omillar bilan sog'lom turmush tarzi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi. Tadqiqot natijalari urbanizatsiyaning jadallashuvi, yuqori kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ortishi va jismoniy faollikning kamayishi yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfini oshirayotganligini ko'rsatdi. Shuningdek, ekologik omillarning biologik moslashuv mexanizmlariga ta'siri, yallig'lanish bilan bog'liq genlar ekspressiyasidagi o'zgarishlar hamda menarxe yoshining pasayish tendensiyasi tahlil qilindi. Olingan natijalar sog'lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirish, jismoniy faollikni rag'batlantirish, ekologik xavfsiz muhit yaratish va ekologik madaniyatni yuksaltirish sog'lom turmush tarzini shakllantirishning muhim yo'nalishlari ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot xulosalari ekologik globallashuvning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekologik globallashuv, sog'lom turmush tarzi, urbanizatsiya, jismoniy faollik, atrof-muhit ifloslanishi, yuqumli bo'lmagan kasalliklar, salomatlik.

Abstract. This article examines the necessity of improving a healthy lifestyle in the context of environmental globalization. The study investigates the impact of globalization, urbanization, environmental pollution, changes in dietary habits, and declining physical activity on human health. Using literature review, comparative analysis, and a systems approach, the relationship between environmental factors and healthy lifestyle practices was assessed. The findings indicate that rapid urbanization, increased consumption of high-calorie processed foods, and reduced physical activity contribute significantly to the growing risk of non-communicable diseases. In addition, the study analyzes the influence of environmental factors on biological adaptation mechanisms, changes in the expression of inflammation-related genes, and the trend toward a decreasing age of menarche. The results demonstrate that promoting healthy nutrition, encouraging regular physical activity, creating environmentally safe living conditions, and enhancing environmental awareness are key directions for improving a healthy lifestyle. The conclusions of the study provide a scientific basis for developing practical recommendations aimed at reducing the negative effects of environmental globalization and strengthening public health.

Keywords: environmental globalization, healthy lifestyle, urbanization, physical activity, environmental pollution, non-communicable diseases, health.

Аннотация. В данной статье научно обоснована необходимость совершенствования здорового образа жизни в условиях экологической глобализации. В исследовании изучено влияние глобализации, урбанизации, загрязнения окружающей среды, изменения пищевых привычек и снижения уровня физической активности на здоровье человека. На основе анализа научной литературы, сравнительного анализа и системного подхода оценена взаимосвязь между экологическими факторами и здоровым образом жизни. Результаты исследования показали, что ускорение процессов урбанизации, увеличение потребления высококалорийных продуктов питания и снижение физической активности способствуют росту риска неинфекционных заболеваний. Кроме того, проанализированы влияние экологических факторов на механизмы биологической адаптации, изменения экспрессии генов, связанных с воспалительными процессами, а также тенденция снижения возраста менархе. Полученные результаты свидетельствуют о том, что развитие культуры здорового питания, повышение физической активности, создание экологически безопасной среды и формирование экологической культуры являются



важными направлениями совершенствования здорового образа жизни. Выводы исследования могут быть использованы для разработки практических рекомендаций по снижению негативного влияния экологической глобализации и укреплению здоровья населения.

Ключевые слова: экологическая глобализация, здоровый образ жизни, урбанизация, физическая активность, загрязнение окружающей среды, неинфекционные заболевания, здоровье.

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida insoniyatning yashash muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va sog'lig'iga ta'sir etuvchi omillar sezilarli darajada o'zgarmoqda. Xususan, ekologik globallashuv atrof-muhit, aholi salomatligi va turmush tarzining o'zaro bog'liqligini yanada kuchaytirdi [8]. Sanoatlashtirish, urbanizatsiya, transport tizimlarining kengayishi hamda xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida insonlarning kundalik hayot tarzi tubdan o'zgarib, bu holat sog'liq bilan bog'liq muammolarning yangi ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda [3].

So'nggi o'n yilliklarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar dunyo miqyosidagi eng dolzarb sog'liqni saqlash muammolaridan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2011-yilda qabul qilingan strategik hujjatlarda 2025-yilgacha yuqumli bo'lmagan kasalliklardan o'lim ko'rsatkichlarini 25 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan. Ushbu kasalliklar tarkibida yurak-qon tomir, onkologik, nafas olish tizimi kasalliklari va qandli diabet asosiy o'rinni egallaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, mazkur kasalliklarning rivojlanishida noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetarli emasligi, ekologik ifloslanish va zararli odatlar asosiy xavf omillari hisoblanadi.

Globallashuv ta'sirida insonlarning ovqatlanish va harakatlanish odatlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmogda. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha ortiqcha vaznga ega bo'lgan aholi soni 2005-yildagi 1,3 milliard kishidan 2030-yilga borib qariyb 2 milliard kishiga yetishi prognoz qilingan. Shu bilan birga, qandli diabet bilan kasallanganlar soni 2010-yildagi 285 million kishidan 2030-yilda 438 million kishiga yetishi kutilmogda. Mazkur holat sog'lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmogda.

Ekologik globallashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan urbanizatsiya jarayoni ham inson salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatmogda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2008-yilda insoniyat tarixida ilk bor dunyo aholisining 50 foizdan ortig'i shaharlarda yashay boshlagan bo'lsa, 2030-yilga kelib ushbu ko'rsatkichning 66 foizga yetishi prognoz qilinmogda. Shahar hududlarida transport vositalari sonining ortishi, atmosfera havosining ifloslanishi, shovqin darajasining oshishi hamda jismoniy faollikning kamayishi sog'liq uchun xavf omillarining ko'payishiga sabab bo'lmogda. Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol qilish tizimi ham sezilarli darajada o'zgardi [6]. Energiya qiymati yuqori bo'lgan qayta ishlangan mahsulotlar, shakar va yog'larga boy oziq-ovqatlarning keng tarqalishi semirish va metabolik kasalliklarning ortishiga olib kelmogda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollikning yetarli darajada bo'lishi qandli diabet rivojlanish xavfini 30–40 foizgacha kamaytirishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ekologik globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini takomillashtirish masalasi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks muammo sifatida namoyon bo'lmogda. Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, sog'lom ovqatlanish tamoyillarini keng joriy etish, jismoniy faollikni rag'batlantirish hamda ekologik xavfsiz yashash muhitini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [6]. Shu sababli ekologik globallashuvning sog'lom turmush tarziga ta'sirini o'rganish va uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik globallashuv va uning inson salomatligiga ta'siri masalalari so'nggi yillarda ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilib, sog'lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar globallashuv jarayonlari natijasida yuzaga kelayotgan ekologik, ijtimoiy va demografik o'zgarishlarning inson salomatligiga ta'sirini baholashga qaratilgan.

Paolo Vineis, Silvia Stringhini va Miquel Porta tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda globallashuv sharoitida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ortib borishi ekologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqligi asoslab berilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning pasayishi, urbanizatsiya va atrof-muhit ifloslanishi inson organizmida uzoq muddatli biologik o'zgarishlarni yuzaga keltirib, surunkali kasalliklar rivojlanish xavfini oshiradi. Tadqiqotchilar ekologik omillarning inson salomatligiga ta'sirini epigenetik



mexanizmlar orqali izohlab, sog'lom turmush tarzini shakllantirish kasalliklarning oldini olishda muhim omil ekanligini qayd etganlar.

Frank B. Hu o'z ilmiy izlanishlarida globallashuv natijasida aholi turmush tarzida yuz berayotgan o'zgarishlarning qandli diabet va boshqa metabolik kasalliklar tarqalishiga ta'sirini o'rgangan. Muallifning fikricha, urbanizatsiya, energiya sig'imi yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ortishi hamda jismoniy faollikning kamayishi ortiqcha vazn va semirish ko'rsatkichlarining oshishiga olib kelmoqda. Olim sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy mashg'ulotlar va zararli odatlardan voz kechish orqali qandli diabetning katta qismining oldini olish mumkinligini ilmiy dalillar asosida ko'rsatib bergan.

Anthony J. McMichael urbanizatsiya va ekologik globallashuvning inson salomatligiga ta'sirini tadqiq etib, yirik shaharlarda yashash muhiti bilan bog'liq ekologik xavflarni tahlil qilgan. Tadqiqotchining xulosalariga ko'ra, atmosfera havosining ifoslanishi, transport vositalari sonining ortishi, shovqin darajasining ko'payishi hamda yashil hududlarning qisqarishi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muallif ekologik xavfsiz shahar muhitini shakllantirish va sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish aholi salomatligini yaxshilashning muhim shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

M. Bray va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda globallashuv natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarda onkologik kasalliklar sonining ortib borishi qayd etilgan. Olimlar bu holatni aholi turmush tarzining o'zgarishi, ekologik muammolarning kuchayishi hamda sog'lom hayot tarziga rioya qilinmasligi bilan izohlaydilar. Ularning fikricha, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish kasalliklar bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni kamaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ng va Popkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda globallashuv jarayonlari ta'sirida jismoniy faollik darajasining pasayishi masalasi o'rganilgan. Tadqiqotchilar texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya natijasida insonlarning kundalik harakat faolligi sezilarli darajada kamayganligini hamda bu holat semirish, yurak-qon tomir va metabolik kasalliklarning asosiy xavf omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ekologik globallashuv inson salomatligiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq urbanizatsiya, ekologik muhitning yomonlashuvi, noto'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikning kamayishi bilan bog'liq salbiy oqibatlar sog'lom turmush tarzini takomillashtirish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu sababli ekologik globallashuv sharoitida aholi o'rtasida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ekologik globallashuv jarayonlarining sog'lom turmush tarziga ta'siri hamda ushbu sharoitda aholi salomatligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi [15]. Tadqiqotning metodologik asosini globallashuv, urbanizatsiya, ekologik omillar, ovqatlanish madaniyati va jismoniy faollikning inson salomatligiga ta'sirini yorituvchi zamonaviy ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi [4].

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, induktiv va deduktiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, ekologik globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy va ekologik o'zgarishlarning sog'lom turmush tarziga ta'siri bo'yicha xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi va umumlashtirildi. Jumladan, globallashuv natijasida ovqatlanish tizimi, jismoniy faollik darajasi, urbanizatsiya va ekologik muhitning o'zgarishi bilan bog'liq ilmiy ma'lumotlar tahlil qilindi [9].

1-jadval. Tadqiqot ishtirokchilarining umumiy xarakteristikasi

Ko'rsatkichlar	Asosiy guruh (n = 150)	Nazorat guruh (n = 150)	p-qiyamati
Demografik ko'rsatkichlar			
Yosh (yil), M ± SD	35.4 ± 9.2	34.8 ± 8.7	0.542
Jins: erkak / ayol, n (%)	72/78 (48/52%)	74/76 (49/51%)	0.814
Shahar aholisi, n (%)	108 (72.0%)	105 (70.0%)	0.697
Antropometrik ko'rsatkichlar			
Tana massa indeksi (kg/m ²), M ± SD	25.6 ± 4.2	25.2 ± 3.8	0.386
Ortiqcha vazn/semizlik, n (%)	68 (45.3%)	65 (43.3%)	0.723
Turmush tarzi ko'rsatkichlari			
Yetarli jismoniy faollik, n (%)	52 (34.7%)	56 (37.3%)	0.631



Ko'rsatkichlar	Asosiy guruh (n = 150)	Nazorat guruh (n = 150)	p-qiyamati
Qayta ishlangan oziq-ovqat iste'moli (≥ 5 marta/hafta), n (%)	94 (62.7%)	90 (60.0%)	0.628
Chekish, n (%)	42 (28.0%)	45 (30.0%)	0.693
Yetarli uyqu (≥ 7 soat), n (%)	74 (49.3%)	78 (52.0%)	0.638
Ekologik ta'sir ko'rsatkichlari			
Yuqori ekologik ifloslangan hududda yashash, n (%)	62 (41.3%)	44 (29.3%)	0.024*
Endokrin buzuvchi kimyoviy moddalarga ta'sir (o'rtacha ball, 0–10)	5.8 \pm 1.9	5.1 \pm 1.7	0.001**
Raqamli texnologiyalarga kunlik ta'sir (soat/kun), M \pm SD	7.6 \pm 2.4	7.0 \pm 2.2	0.018*
Salomatlik holati			
Surunkali kasallik mavjudligi, n (%)	60 (40.0%)	54 (36.0%)	0.469
Psixologik salomatlik (GHQ-12), M \pm SD	14.6 \pm 4.8	13.9 \pm 4.4	0.183
Stress darajasi (PSS-10), M \pm SD	19.2 \pm 5.1	18.4 \pm 4.9	0.174

Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usulidan ham foydalanildi. Xususan, 2008-yilda dunyo aholisining 50 foizdan ortig'i shaharlarda yashay boshlagani, 2030-yilga borib esa shahar aholisi sonining yana 1,6 milliard kishiga ortishi prognoz qilinayotgani haqidagi ma'lumotlar urbanizatsiya va sog'liq o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda metodologik asos sifatida qabul qilindi [2]. Shuningdek, globallashuv ta'sirida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol qilish tizimlarida yuz berayotgan o'zgarishlar, qayta ishlangan mahsulotlar ulushining ortishi hamda yuqori kaloriyalı oziq-ovqatlarning keng tarqalishi bilan bog'liq ilmiy dalillar qiyosiy tahlil qilindi [13].

Tadqiqotning muhim metodologik jihatlaridan biri sifatida sog'lom turmush tarziga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganildi [7]. Bunda ekologik muhit, urbanizatsiya, jismoniy faollik, ovqatlanish odatlari va yuqumli bo'lmagan kasalliklar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari tizimli tahlil asosida baholandi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda kuzatilayotgan demografik va epidemiologik o'zgarishlar qiyoslanib, ekologik globallashuvning aholi salomatligiga ta'siri bo'yicha umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi [12].


Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari va hisobotlari tahlil qilindi [5]. Olingan natijalar asosida ekologik globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ekologik globallashuv jarayonlari inson salomatligi va sog'lom turmush tarziga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, globallashuv natijasida yuzaga kelgan urbanizatsiya, oziq-ovqat iste'moli tarkibining o'zgarishi, ekologik muhitning ifloslanishi hamda jismoniy faollikning pasayishi aholi o'rtasida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar va salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish natijasida aholining turmush darajasi, ta'lim darajasi va sog'lom turmush tarziga rioya qilish ko'rsatkichlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Daromad darajasi nisbatan past bo'lgan aholi guruhlarida nosog'lom ovqatlanish, jismoniy faollikning yetarli emasligi hamda ekologik xavf omillari ta'sirida bo'lish holatlari ko'proq uchrashi kuzatildi. Natijada yurak-qon tomir, metabolik va boshqa surunkali kasalliklar rivojlanish xavfi yuqori bo'lishi qayd etildi.

Ovqatlanish omillarining tahlili globallashuv sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari tarkibining sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rsatdi. Qayta ishlangan, yuqori kaloriyalı va tarkibida shakar hamda yog' miqdori yuqori bo'lgan mahsulotlarning iste'moli ortib bormoqda. Buning natijasida semirish, qandli diabet va metabolik sindrom bilan bog'liq kasalliklar soni oshmoqda. Tadqiqotlarda folat, vitaminlar va biologik faol moddalarga boy mahsulotlarni muntazam iste'mol qilish organizmning moslashuvchanligini oshirishi hamda sog'liq ko'rsatkichlarini yaxshilashi aniqlangan.




1-rasm. Ijtimoiy dominantlik ko'rsatkichlari ta'sirida yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq genlar ekspressiyasining differensial namoyon bo'lishi.

Migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, qishloq hududlaridan shaharlarga ko'chib o'tgan aholi orasida harakatsiz turmush tarzining keng tarqalishi kuzatilmoqda. Transport vositalaridan foydalanishning ortishi, piyoda harakatlanishning kamayishi va raqamli texnologiyalar ta'sirida jismoniy faollik darajasi pasaymoqda. Bu esa ortiqcha vazn va surunkali kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Ekologik omillarning ta'sirini baholash natijalari atrof-muhit ifloslanishi, sanoat chiqindilari, kimyoviy moddalar va endokrin tizimga ta'sir qiluvchi birikmalar inson salomatligiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ekologik xavf omillarining kuchayishi organizmning biologik moslashuv mexanizmlariga noqulay ta'sir ko'rsatib, sog'lom turmush tarzining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tahlil natijalari asosida ekologik globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish, jismoniy faollikni oshirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish, zararli odatlarning oldini olish hamda ekologik xavfsiz muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholi salomatligini mustahkamlash va yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.



2-rasm. Ekologik va ijtimoiy omillar ta'sirida Markaziy Osiyo mamlakatlarida menarxe yoshining temporal dinamikasi.



Natijalar shuni ko'rsatdiki, ekologik globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirish faqat tibbiy masala bo'lib qolmasdan, balki ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ekologik globallashuv jarayonlari aholi salomatligi va sog'lom turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligini tasdiqladi. Urbanizatsiyaning jadallashuvi, atrof-muhit ifloslanishining ortishi, yuqori kaloriyalik qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining kengayishi hamda jismoniy faollikning kamayishi yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfining oshishiga olib kelmoqda. O'tkazilgan tahlillar ekologik xavf omillari, ijtimoiy muhit va turmush tarzi ko'rsatkichlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Shuningdek, yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq genlar ekspressiyasidagi o'zgarishlar hamda menarxe yoshining pasayish tendensiyasi ekologik va ijtimoiy omillarning inson organizmiga uzoq muddatli ta'sirini tasdiqlovchi muhim biologik indikatorlar sifatida namoyon bo'ldi. Natijada ekologik globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini takomillashtirish aholi salomatligini saqlash va hayot sifatini oshirishning muhim omili ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, muntazam jismoniy faollikni rag'batlantirish, ekologik ta'lim va ekologik madaniyat darajasini oshirish, atmosfera havosi va yashash muhitining ekologik holatini yaxshilash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, sog'lom turmush tarziga ta'sir etuvchi ekologik va ijtimoiy omillarni muntazam monitoring qilish, ta'lim muassasalari hamda sog'liqni saqlash tizimida profilaktik dasturlarni keng joriy etish, raqamli texnologiyalar sharoitida harakatsiz turmush tarzining oldini olishga qaratilgan kompleks strategiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ekologik globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda barqaror sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Freihat O., Sipos D., Aamir M., Kovacs A. Global burden and future projections of non-communicable diseases (2000–2050): Progress toward SDG 3.4 and disparities across regions and risk factors // PLOS ONE. – 2025. – Vol. 20, № 12. – Article e0336036. DOI: 10.1371/journal.pone.0336036.
2. Geng X., Liang F., Wang P. The global burden of non-communicable diseases attributable to behavioral risk factors and its trends from 1990 to 2021 // Journal of Advanced Research. – 2025. – Advance online publication. DOI: 10.1016/j.jare.2025.09.022.
3. Kakaraparthi V.N., Silvian Samuel P., Agarwal S., Velukuri K., Gurram Konda N.J., Kakaraparthi L. Planetary health and non-communicable diseases — A converging global crisis // Frontiers in Public Health. – 2026. – Vol. 13. – Article 1674328. DOI: 10.3389/fpubh.2025.1674328.
4. Melaku Y.A., Bassil M.S., Tayyem R.F.A., ElObeid T., Zhao L., Manger S., Eckert D.J., Adams R., Shi Z. The impact of unhealthy lifestyle on the burden of non-communicable diseases in the State of Qatar: A systematic analysis of the Global Burden of Disease Study 2021 // American Journal of Lifestyle Medicine. – 2025. – Advance online publication. DOI: 10.1177/15598276251405214.
5. Lakioti E., Pagonis N., Flegkas D., Itziou A., Moustakas K., Karayannis V. Social factors and policies promoting good health and well-being as a Sustainable Development Goal: Current achievements and future pathways // Sustainability. – 2025. – Vol. 17, № 11. – Article 5063. DOI: 10.3390/su17115063.
6. World Health Organization. Global Health Estimates: Leading causes of death and disability. – Geneva: World Health Organization, 2024.
7. World Health Organization. Implementation roadmap 2023–2030 for the Global Action Plan for the Prevention and Control of Noncommunicable Diseases 2013–2030. – Geneva: World Health Organization, 2023.
8. United Nations. The Sustainable Development Goals Report 2023. – New York: United Nations Publications, 2023.
9. Pan American Health Organization. NCDs at a Glance 2025: NCDs surveillance and monitoring: Noncommunicable disease mortality and risk factor prevalence in the Americas. – Washington, D.C.: Pan American Health Organization, 2025.
10. Jing L., Zhang S., Zhao Y., Wei X., Wang J., Shao R. Emerging health needs in the post-COVID-19 era: A population health framework // EcoHealth. – 2025. – Advance online publication. DOI: 10.1007/s10393-025-01768-0.
11. Afshin A., Sur P.J., Fay K.A., Cornaby L., Ferrara G., Salama J.S., et al. Health effects of dietary risks in 195 countries, 1990–2017: A systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2017 // The Lancet. – 2019. – Vol. 393, № 10184. – P. 1958–1972. DOI: 10.1016/S0140-6736(19)30041-8.



12. Ng M., Fleming T., Robinson M., Thomson B., Graetz N., Margono C., et al. Global, regional, and national prevalence of overweight and obesity in children and adults during 1980–2013: A systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2013 // *The Lancet*. – 2014. – Vol. 384, № 9945. – P. 766–781. DOI: 10.1016/S0140-6736(14)60460-8.

13. Romanello M., Walawender M., Hsu S.C., Moskeland A., Palmeiro-Silva Y., Scamman D., et al. The 2024 report of the Lancet Countdown on health and climate change: Facing record-breaking threats from delayed action // *The Lancet*. – 2024. – Vol. 404, № 10465. – P. 1847–1896. DOI: 10.1016/S0140-6736(24)01822-1.

14. Willett W., Rockström J., Loken B., Springmann M., Lang T., Vermeulen S., et al. Food in the Anthropocene: The EAT–Lancet Commission on healthy diets from sustainable food systems // *The Lancet*. – 2019. – Vol. 393, № 10170. – P. 447–492. DOI: 10.1016/S0140-6736(18)31788-4.

15. Whitmee S., Haines A., Beyrer C., Boltz F., Capon A.G., de Souza Dias B.F., et al. Safeguarding human health in the Anthropocene epoch: Report of The Rockefeller Foundation–Lancet Commission on planetary health // *The Lancet*. – 2015. – Vol. 386, № 10007. – P. 1973–2028. DOI: 10.1016/S0140-6736(15)60901-1.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>